

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Mirzaqobilova Shaxnoza

Namangan Davlat Universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarida integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishning ahamiyati, o‘rganilganlik darajasi, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan, ilmiy jihatdan asoslanib, xulosa va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, ta‘lim, tarbiya, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, integrativ yondashuv, tasavvur, bilim, ko‘nikma, malaka, dunyoqarash, dars, texnologiya, ijod, tafakkur.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Мирзақобилова Шахноза

Докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной статье представлены отзывы о состоянии организации уроков у учащихся начальных классов на основе интегративного подхода, уровне изученности, проведенных учеными исследованиях, изложены научно обоснованные выводы и рекомендации.

Ключевые слова: математика, образование, образование, интеграция, междисциплинарность, интегративный подход, воображение, знания, навыки, компетенции, мировоззрение, урок, технологии, творчество, мышление.

TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

Mirzakobilova Shakhnoza

Doktarant of Namangan State University

Abstract: In this article, the state of organizing lessons based on an integrative approach for elementary school students, the level of learning, opinions about the research work carried out by scientists are presented, scientifically based, conclusions and recommendations are presented.

Keywords: mathematics, education, upbringing, integration, interdisciplinarity, integrative approach, imagination, knowledge, skill, competence, outlook, lesson, technology, creativity, thinking.

Kirish

Ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsining o'rni beqiyos. Pedagog o'quvchiga faqatgina o'quv predmetidagi nazariy bilimlarni berishi emas, nazariy bilimlarga asoslangan amaliy ko'nikmalarni ularda shakllantirishi va rivojlantirishi, turli kompetensiyalarga ega bo'lgan bo'lajak shaxsni tarbiyalashi lozim. Pedagogik faoliyatni integratsion yondashuv asosida modellashtirish, o'quv jarayondagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda ularni ustida ishlash pedagog kasbiy kompetensiyasini har jihatdan shakllanishiga ko'mak beradi.

Integrativ-kognitiv topshiriqlar fanlararo aloqadorlikka asoslanganligi, mavjud holatni pedagogik, psixologik hamda aqliy jihatdan inobatga olgan holda tashkil etilganligi bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentlik borasidagi birqancha muammolarga yechim topishga yordam beradi. Ta'limda integratsion yondashuv asosida tashkil etish dunyoni yaxlit anglashga, jarayon hamda bilimlar o'zaro bog'liqlikda ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayo'tgan islohotlar, jumladan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmonlarida «hayo'tga kirib kelayotgan yo'sh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ularning ta'lim-tarbiyasini barpo etayo'tgan yangi O'zbekiston talablariga mos holda sifat jihatdan yuqori pag'onaga ko'tarish», ayniqsa ... yo'sh avlodimizning integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash ularning bandligini ta'minlash, hayotga o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi dolzarb ekanligi ta'kidlangan. Mazkur muammoni hal etishda uzluksiz ta'lim turlari ayniqsa, o'rta ta'lim maktablari (boshlang'ich sinflari) da darslarni fanlararo tashkil etish salmoqlidir.

Zero, o'rta ta'lim o'quv dasturlariga hayot va kelajak faoliyat uchun zaruriy bilimlar bilan qurollantiradi, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida aqliy qobiliyatlarini o'stiradilar, ilmiy www.innacademy.uz salohiyatlarini yuksaltiradilar, jismoniy kuchlarini rivojlantiradi, ilmiy dunyo'qarashlari tarkib toptib, zamonaviy bilimlarni puxta egallashlariga xizmat qiladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirib, uning talimiy-tarbiyaviy yo'nalishlarini modernizatsiya qilish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e'tibor bermoqlikni davrning o'zi ko'rsatmoqda. R.Safarova, Integrativ yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish muammolari yuzasidan A.Musurmonov, P.Musayev, A.Ch.Choriyev, A.A.Salomov, B.Abdullayeva kabi o'zbek olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu va boshqa tadqiqot ishlarida fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tanlangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan hal etilgan. Jumladan, V.N.Fedorova o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib, o'quv fanlariaro aloqadorlik tabiiy fanlar bilan atrof-muhit hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va izchillikda ifodalashning didaktik sharti sifatida namoyon bo'lishi asoslarini tarkib toptirishning pedagogik, psixologik, metodik jihatlari tadqiq qilingan.

O'quvchilarda matematik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida uning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tadqiqotchi olimlar turli yo'nalishlarda tahlil qilganlar. Chunonchi, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkinlar matematik bilimlar asosida o'quv

jarayonini faollashtirish, M.K.Ashirova matematikaning boshqa fanlar bilan fanlararo aloqadorligi xususiyatlari A.M.Matyushkin⁷⁸, V.T.Kudryavtseva, L.S.Vigotskiy⁷⁹, B.G.Ananev, G.F.Fedores matematik ko‘nikma va malakalarni fanlararo aloqadorlikda shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari, o‘quvchilarda bilishni takomillashtirishning qonuniyatlarini o‘z tadqiqotlarida ochib berganlar.

Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda quyidagi ahamiyatga molik vazifalar turibdi:

1. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasi mavzining dolzarbligini www.innacademy.uz aniqlash o‘rganish zaruriyatini asoslash;

2. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasi mavzida chop etilgan darsliklar, qo‘llanmalar, monografiyalar, turli ilmiy darajalarni olish uchun yo‘zilgan dissertasiyalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish;

3. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tasavvurlarini shakllantirish borasida faoliyat olib borgan olimlar, fan doktorlari va nomzodlari faoliyatini o‘rganish va o‘rganilmagan jihatlarini aniqlash; Shunday ekan bu vazifalarni og‘ishmasdan bajarishimiz va o‘quvchilar savodxonligini matematik bilimlarini yanada rivojlantirishimiz lozim.

Boshlang‘ich sinflarda har bir o‘qituvchining dars berishi, alohida olingan integratsiyaning bir usuli deb qarasa, fanlararo aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

Boshlang‘ich maktabda integratsiyaning amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o‘qish, tabiat haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni va yana ko‘pgina narsalarni o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o‘qituvchi (ta‘lim berish) va o‘quvchi (ta‘lim olish) harakatlarining mos kelishini ko‘zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat.

Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta‘minlash asosida o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog‘liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lishi, masalan, o‘qish darslarida qish fasliga doir she‘r yoki matnni o‘qishdan oldin o‘qituvchi mavzuni tabiatshunoslik bilan bog‘liqligi haqida «tabiatshunoslik darsida biz qish faslida bo‘ladigan tabiat hodisalarini, undagi o‘zgarishlarni o‘rganadilar. Ushbu she‘r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan» degan fikr bilangina

cheklansa, unda o'quv fanlari o'rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo'ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi. Boshlang'ich ta'limdagi o'qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog'lab o'quvchilarning tassavurlarini boyitish joiz. Chunki bunday darslar o'quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv fanlariaro aloqadorlik hodisasi murakkab va serqirra didaktik jarayondir. Fanlararo aloqadorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o'zaro bog'langan holda rivojlanishi har zamonda ta'limning asosini tashkil etadi va ta'limning taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.К. Амоношвили. Каждому ребенку-индивидуальный подход. Воспитание основы.(«Начальная школа», 1991).
2. Л.Н.Бухарева Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе. («Начальная школа»,1991 № 8).
3. R.A. Mavlonova va boshq. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., TDPU, 2007.
4. Murodova M. M. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI TABIATSHUNOSLIK FANI BILAN INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 77-79.
5. Murodova M. M. BO'LAJAK BOSHLANG'ISH SINF O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 90-97.
6. ORTIQOV O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //ЭКОНОМИКА. – C. 1130 1135.
7. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 42-47.